

## Andijon davlat tibbiyot instituti yuqumli kasalliklar va epidemiologiya kafedrası



**Yuqumli kasalliklar va epidemiologiya  
kafedra mudiri**

**MIRZAKARIMOVA DILDORA  
BOXODIROVNA**

**Tel:** +998905260232

**E-mail:** [dildora\\_bm@umail.uz](mailto:dildora_bm@umail.uz)

### **YUQUMLI KASALLIKLAR VA EPIDEMIOLOGIYA KAFEDRASII TARIXI VA FAOLIYATI**

Yuqumli kasalliklar kafedrası 1960-yilda Andijon shahar yuqumli kasalliklar shifoxonasi qoshida tashkil etilgan va birinchi kafedra mudiri etib dotsent Uchqun Ganievich Ganiev (1930-1995) tayinlangan.

1972-yilda kafedra 2 qismga bo'lingan:

1-yuqumli kasalliklar va epidemiologiya kafedrası, kafedra mudiri, t.f.d., professor G'ani Qodirovich Xamidov (1928-1997);

1997 yildan t.f.n. dotsent Yosin Qosimovich Qosimov 1-yuqumli kasalliklar va epidemiologiya kafedrasiga kafedra mudiri etib tayinlangan. Yosin Qosimovich Qosimov 1977-yildan kafedra assistenti, 1985-yildan kafedra dotsenti vazifasida ishlagan.

2-yuqumli kasalliklar (Bolalar yuqumli kasalliklari bilan) kafedrası. Kafedra mudiri, t.f.d. professor Komil Mirzaevich Mirzaev(1934-2013).

1982-yili institutda pediatriya fakulteti ochilishi munosabati bilan

2-yuqumli kasalliklar kafedrası «Bolalar yuqumli kasalliklari» kafedrasiga aylangan.

2005-yil mart oyidan boshlab «Yuqumli kasalliklar va epidemiologiya» kafedrası va «Bolalar yuqumli kasalliklari» kafedrası yana birlashib «Yuqumli kasalliklar, bolalar yuqumli kasalliklari kafedrası va epidemiologiya kursi» kafedrasiga aylantirildi. Kafedra mudiri etib O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan shifokor, t.f.d. professor K.M.Mirzaev tayinlandi.

2009-2014 yillarda kafedra «Yuqumli kasalliklar, bolalar yuqumli kasalliklari va epidemiologiya» nomi bilan yuritilib, kafedra mudiri etib dotsent Mirzaxamdam Raximovich Yulchibaev tayinlangan.

2014-yil may oyidan yuqumli kasalliklar va epidemiologiya, mikrobiologiya kafedrasini mudiri lavozimiga tibbiyot fanlari nomzodi Mirzakarimova Dildora Boxodirovna tayinlandi.

Kafedra ochilganidan buyon dotsentlar N.X.Xojimatov, U.V.Ganiev, T.A.Yuldashev, M.A.Alimov, A.B.Xo‘jaev, M.R.Yulchibaev, S.K.Rasulova, K.T.Tashbaev, A.X.Xojimirzaev, V.F.Rozina, tibbiyot fanlari nomzodi T.I.Noraliev, assistentlar V.M. Lenchitskaya, S.O.Daminova, M.A.Ganieva, T.A.Stromila, N.A.Mursaeva, X.N.Nurmatova, T.V.Kiselova, R. Muzaffarova, M.K.Otaboev, Z.M.Ermatova, O.N.Kolenyuk, , M.M.Oripova, O.G.Kuznetsova, S.M.Mamatxujayev, S.X.Toshmatov sidqidildan faoliyat ko`rsatdilar.

### Kafedraning bugungi tarkibi quyidagilardan iborat:

1. D.B.Mirzakarimova-tibbiyot fanlar nomzodi, dotsent.	10. Sh.T.Abdukadirov-assistent
2. M.R.Yulchibaev-tibbiyot fanlari nomzodi,dotsent.	11. A.M.Qayumov-assistent
3. M.Q.Qalandarov-tibbiyot fanlari nomzodi,dotsent.	12. J.N.Oripova-assistent
4. M.A.Alimov-tibbiyot fanlari nomzodi,dotsent.	13. N.M.Valieva-assistent
5. Ya.M.Yuldashev-assistent	14. K.A.Mulladjonova-assistent.
6. T.T.Inomova-assistent	15. N.S.Tuxtanzarova-assistent
7. M.B.Yusupova-assistent	16. R.M.Yakubova-assistent
8. S. A.O`sarova-assistent	17. N.T.Bayxanova-assistent
9. M.G.Djuraev-assistent	18. M.Pulatov-assistent
	19. E.Usmanova-assistent
	20. M.Yunusov-assistent

### Yuqumli kasalliklar va epidemiologiya kafedra jamoasi



**O`quv metodik ishlar:** Kafedrada pediatriya fakultetining 4-5-6-kurslari, davolash va kasbiy ta`lim fakultetining 4-5-6-kurslari, OHI 1-3-kurs talabalari yuqumli kasalliklar, bolalar yuqumli kasalliklari, epidemiologiya, klinik epidemiologiya, infeksiyon nazorat, hamshiralik ishi fanlaridan saboq oladilar. Kafedrada o`quv jarayoni yuqori saviyada tashkil qilingan, barcha kerakli o`quv hujjatlari bor.

Kafedrada o`quv-metodik ishlar zamonaviy texnologiyalar yordamida olib boriladi. Quyidagi yangi o`quv texnologiyalari pedagogik jarayonga kiritilgan:

1. Talabalar bilimni OSCE va og`zaki usullar bilan sinash.
2. Ma`ruzalarda mavzularga oid videofilmlar, slaydlar bilan olib borish.
3. Amaliy mashg`ulotlarda va sinov paytlarda kompyuter ma`lumotlaridan foydalanish.
4. Iqtidorli talabalar bilan ishlashda talabalar konferensiyalari va yakunlovchi olimpiada texnologiyalari kiritilgan.
5. Amaliy ko`nikmalardan yangi usulda foydalanish, ya`ni amaliy ko`nikmalar xonasi tashkil qilingan.

Kafedra xodimlari ko`plab o`quv uslubiy anjumanlarning tashkilotchisidir, ular ko`plab uslubiy hujjatlarning mualliflaridir.

**Ma`naviyat va ma`rifat bo`yicha ishlar:** Kafedrada ma`naviyat va ma`rifat ishlari rejasi mavjud va bu sohaga katta e`tibor beriladi. Alohida ma`naviyat xonasi jihozlangan.

**Ilmiy tadqiqot ishlari.** 1972 yildan boshlab kafedraning ilmiy yo`nalishi qilib virusli gepatitlarning va o`tkir ichak yuqumli kasalliklarining dolzarb muammolari tanlangan. Kafedra mudiri, professor K.M.Mirzaev rahbarligida A.B.Xujaev, M.R.Yulchibaev, K.T.Toshboev, M.P.Stalinskayalar virusli gepatitlarga bag`ishlangan nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilishgan. Shuningdek, professor K.M.Mirzaev ishtirokida T.Z.Jumaboev, K.J.Xusayinovlarning doktorlik dissertatsiyalari tayinlandi va muvaffaqiyatli yoqlandi.

Hozirda kafedrada eng zamonaviy IFA tekshirish usuli, UZI usuli, immunologik testlar usullari ishlab turibdi, ilmiy izlanishlar davom etmoqda. Kafedra xodimlari har yili xorijiy olimlar ishtirokida infeksiyonistlarning ilmiy – amaliy anjumanlarini tashkil qiladilar va ularning materiallarini to`plam sifatida nashr ettiradilar.

Kafedra xodimlari 3 ta monografiya, 2 ta o`quv qo`llanma, 500 dan ortiq ilmiy maqolalar, 3 ta ixtiro, 200 dan ortiq ratsionalizatorlik takliflar, 50 dan ortiq ilmiy uslubiy qo`llanmalar, 200 dan ortiq amaliyotga tadbiqlarning mualliflari hisoblanadilar.

#### **Kafedraning ilmiy yo`nalishlari:**

- Virusli gepatitlarni immunologiyasi va zamonaviy mujassamlashtirilgan davolash usullari;
- Virusli gepatitlar va OIV infeksiyasi;
- Bolalarda o`tkir ichak infeksiyalarida immunologik ko`rsatkichlar va tashxislash masalalari.

#### **Davolash ishlari.**

Kafedra tashkil topgan yildan boshlab (25-avgust 1972-yil) davolash ishlari maxsus tuzilgan reja va shartnoma asosida olib boriladi.

Kafedra xodimlari shifoxonani o`zlariga birlashtirilgan bo`limlarida konsultativ-davolash, kasalliklarni oldini olish ishlarini olib borishadi va jonlantirish bo`limida, shifoxona qabulxonasida ham jadval asosida maslahat ishlarini olib borishadi. Assistentlar bo`limlarda 6-10 nafar bemorlarni davolaydilar.

Kafedra dotsent M.R. Yulchibaev viloyat infeksiyonistlari jamiyatining raisi hisoblanadi. Jamiyatning va shifoxonaning klinik va patologo – anatomik anjumanlari reja asosida o`tkazilib turadi.

Kafedra xodimlari Farg`ona vodiysi shahar va tumanlarida otaliq yordamlarini ham olib boradilar.

Kafedra Andijon viloyati yuqumli kasalliklar shifoxonasining 4- bo`lim 2-qavatida va 6-bo`lim 2-qavatida joylashgan.

### **Texnik jihozlar va ko`rgazmali qurollar bilan ta`minlanishi**

<b>№</b>	<b>Nomi</b>	<b>Soni</b>
<b>1</b>	<b>Videoikkilik</b>	<b>2</b>
<b>2</b>	<b>DVD - player</b>	<b>1</b>
<b>3</b>	<b>Printer Canon</b>	<b>2</b>
<b>4</b>	<b>Kompyuter (Pentium 4)</b>	<b>3</b>
<b>5</b>	<b>Multimediya</b>	<b>1</b>
<b>6</b>	<b>Gemokoagulograf</b>	<b>1</b>
<b>7</b>	<b>Konditsioner</b>	<b>2</b>
<b>8</b>	<b>Termostat</b>	<b>4</b>
<b>9</b>	<b>FEK</b>	<b>2</b>
<b>10</b>	<b>Elektro sushilka</b>	<b>1</b>
<b>11</b>	<b>Rektoskop</b>	<b>2</b>
<b>12</b>	<b>Yozuv mashinasi Yantar</b>	<b>1</b>
<b>13</b>	<b>Mikroskop</b>	<b>2</b>
<b>14</b>	<b>Diaproektor</b>	<b>6</b>
<b>15</b>	<b>O`quv tablitsalari</b>	<b>600</b>
<b>16</b>	<b>Rangli slaydlar</b>	<b>950</b>
<b>17</b>	<b>O`quv kinofilmlari</b>	<b>14</b>
<b>18</b>	<b>Ma`ruzalarni elektron versiyalari</b>	<b>20</b>